

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/6-SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.M.Kaxarova, D.A.Muxammadaminova	
Dars samaradorligini oshirishda til o'rganuvchilarning o'zlashtirish jarayonini baholash	538
M.V.Nasridinov	
Buyruq nutqiy aktlarining tilshunoslikdagi ijtimoiy-madaniy omillar bilan bog'liqligi	542
Sh.H.Nuritdinova	
Online english language learning and its promotion	547
M.M.Nurmatova	
Development of intercultural communicative competence	551
M.M.Nurmatova	
The importance of "Face" phenomenon in uzbek and english communication	553
Z.Sh.Pazilova	
Nemis taufen (suvga cho'mish marosimlari) leksik birligining lingvokulturologik tadqiqi	556
D.R.Ubaydullayeva	
Nutq so'zlashda qo'rquvni yengish: sabablar va takliflar	559
Ш.Ё.Усмонова	
Анализ семантики ландшафтных терминов в узбекском и английском	562
языках и особенности их употребления	562
Sh.M.Yusufjonova	
Milliy mentalitet va idiomalar: memis va o'zbek frazalozizmlarining madaniy ta'siri	566
Sh.M.Yusufjonova	
Nemis va o'zbek frazalozizmlarida xalqning dunyoqarashi: madaniyat va tilshunoslik asosida	570
S.A.Yusupova, D.A.Ganiyeva	
Hurmat konsepti va stilistik vositalarning o'zaro uyg'unligi	574
F.B.Abduraximova	
Ingliz va o'zbek tillarida okkazional so'zlarning lingvokulturologik xususiyatlari	577
A.O.Oxunov	
Ingliz tilida wh his-hayajon gaplarining turlari va sintaktik vazifalari	582
D.K.Jumaniyazov	
Developing language skills and cultural competence in english through films	586
Д.Ш.Ибрагимова	
Эффективность использования театрализации в обучении иностранного языка	589
Д.Х.Муротова	
Лингвокультурологическое исследование речевого акта извинения	596
F.B.Abduraximova	
O'zbek va ingliz tillarida affiksatsiya usulida so'z yasaliishining o'ziga xos xususiyatlari	599
Sh.F.Latipov	
Lingvistik bo'shliqni to'ldirishning 6 xil yo'li	604
Г.Т.Галимуллина	
Сопоставительный анализ фразеологических единиц с компонентом драгоценные камни и металлы английского и русского языков во фразеосемантическом поле «Доброта»	608
M.A.Ahundjanova	
Foreign languages and their teaching methodologies	611
F.T.Raximova	
Nutqiy aktlarni ifodalovchi leksik vositalar	615
Sh.Z.Xolmatov	
The history of argots' origin in english speaking countries, Russian and Uzbekistan	618
T.R.Madinakhan	
Kinoyaning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari ifodasiga nazariy yondashuvlar	623
Z.A.Qochqorova	
O'zbek va ingliz tillarida "To'y – wedding" mavzusidagi paremiologik birliklarning qiyosiy tadqiqi	628
M.B.Yusupova	
O'zbek va ingliz tillarda evfemizatsiyalashgan maqol hamda matallarda milliy madaniy kod tahlili	633



UO'K 891.709:894.3

KINOYANING KOMMUNIKATIV-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI IFODASIGA NAZARIY YONDASHUVLAR**ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ВЫРАЖЕНИЮ КОММУНИКАТИВНО-ПРАГМАТИЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЕЙ ИРОНИИ****THEORETICAL APPROACHES TO THE EXPRESSION OF COMMUNICATIVE-PRAGMATIC FEATURES OF IRONY****Madinakhan Turdimatova Ravshanbek kizi** 
Ingliz tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi**Annotatsiya**

Ushbu maqola kinoyaning kommunikativ-pragmatik xususiyatlarini tushunishning nazariy yondashuvlarini o'rganadi, uning lingvistik va kontekstual o'lchovlariga e'tibor beradi. Ironiya ko'p qirrali kommunikativ vosita sifatida, tom ma'noda va nazarda tutilgan ma'nolar o'rtasida o'zaro ta'sirda ishlaydi, ko'p hollarda kinoya uslubiy vositasini idrok etilishida vaziyatni to'liq tushunish uchun umumiy bilim va madaniy belgilarga tayanadi. Kinoya pragmatik jihatidan kontekstda ifodalayotgan ma'nolari so'zlovchi, tinglovchi va nutq jarayoni o'rtasidagi voqelikni ochib berishda nutq aktlarida tahlilga olingan.

Аннотация

В данной статье исследуются теоретические подходы к пониманию коммуникативно-прагматических особенностей иронии, уделяя внимание ее языковому и контекстуальному измерениям. Ирония работает как многогранное коммуникативное средство, при взаимодействии прямых и подразумеваемых значений во многих случаях при восприятии стилистического инструмента иронии используются общеизвестные и культурные символы, позволяющие полностью понять ситуацию. Значения иронии в прагматическом контексте анализируются в речевых актах с целью выявления реальности между говорящим, слушающим и речевым процессом.

Abstract

This article explores theoretical approaches to understanding the communicative-pragmatic properties of irony, focusing on its linguistic and contextual dimensions. Irony, as a multifaceted communicative tool, operates in the interaction between literal and implied meanings, often relying on common knowledge and cultural symbols to fully understand the situation in the perception of the stylistic device of irony. The pragmatic meanings of irony in context are analyzed in speech acts, revealing the reality between the speaker, the listener and the speech process.

Kalit so'zlar: kinoyaviy ma'no, kontekst va matn tushunchalari, og'zaki kinoya, idrok etish, hissiy zakovat, tagma'no, tagmatn, kinoyaviy tagma'no, ishoraviy tagma'no, illokutiv akt, prelokutiv ta'sir, pragmatik vazifadorlik.

Ключевые слова: ироническое значение, контекст и текстовые концепты, речевая ирония, восприятие, эмоциональный интеллект, смысл, значение, ироническое значение, аллюзивное значение, иллокутивный акт, прелокутивный эффект, прагматическая функция.

Key words: ironic meaning, concepts of context and text, verbal irony, mentalizing, emotional intelligence, implicit meaning, ironic meaning, allegorical meaning, illocutionary act, prelocutionary effect, pragmatic responsibility.

KIRISH


Ba'zi tadqiqotlarda kinoyaning yopiq qirralarini kashf etishda tilshunoslikda kognitivlik hodisasi orqali ham tadbiiq etilgan. S.Balashevning tadqiqotiga ko'ra kinoya atrofdagi olam haqidagi ma'lumotlarni qayta ishlash, saqlash va undan keyingi foydalanish jarayonini o'z ichiga olgan kognitiv xarita orqali ko'rsatib berilgan.[1] Ma'lumki, muayyan shaxsning individual xususiyati muloqot jarayonida sayqallandi, suhbat jarayonida nechog'lik haqiqatga yaqin so'zlarni yetkazib berish ham insonning tafakkuri natijasidir. Kognitiv xaritaning izchil yo'lga qo'yilishi, insonning nutqida idrok etilgan ma'lumotning sifatiga bog'liq bo'ladi. Ayniqsa, nutqda ifodalanayotgan ifodaning "ohori to'kilmagan", o'z ma'nosiga egaligi kabi xususiyatlarini o'zida aks ettirishidir. Kinoyadan foydalanuvchi shaxs ma'lumotlardan foydalangan holda o'z kognitiv xaritasida qarama-

qarshi kognitiv tuzilmani shakllantiradi. Bunda kognitiv shakllanish neytral tarzda namoyon bo'lsada, kognitiv xaritada esa qarama-qarshilik mavjudligini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODI

Natijada paydo bo'lgan konflikt kinoyaviy ma'noning mavjudligi omili sifatida talqin qilinadi. Shunday qilib, S.Balashevning tadqiqotiga ko'ra kinoya modeli to'rt bosqichdan iborat:

1.3-rsm. Kinoyaning to'rt bosqichli modeli



Kontekst va matn tushunchalari o'zaro semantik ma'nosiga egaligi jihatidan diqqatga molikdir. Negaki, matn kinoya va boshqa uslubiy vositalarni ko'chma ma'nosi bilan uyg'unlashtirib beradi deyish kontekstga ham muvofiq tushadi. Biroq og'zaki va yozma o'rinlarda kontekst har ikki xususiyatni o'zida namoyon qilsa, matn faqat bir tarafdama yozma nutqqa ishora qiladi. Kinoyaning matnda ya'ni yozma nutqda tahlili matn yaratuvchi komponent sifatidagi o'rni bilan baholanadi. O'Mavlonova ham shuni nazarda tutgan holda, "Matnni tashkil etuvchi kinoyani faol boshqarishning eng kichik vositalari matnlararo inklyuziyalardir. Kinoya bilan yaratilgan matnlar Z.Freyd motivlari bilan ajralib turadi. Bunda yana matnning eng muhim matn yaratuvchi komponenti – sarlavha ba'zi hollarda matnni psixanalitik asosda talqin qilish imkoniyatini beradi. Kinoya komiklikning bir shakli sifatida metamatn, yangi madaniyatning maxsus, o'ziga xos matni, uning tuzilishi bir til tizimining o'ziga xos matni va nutq kontekstining birligi asosida shakllanadi [2]" deya izoh beradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Kinoyaning sub-guruhi bo'lgan "og'zaki" (verbal irony) kinoyaning o'rganilish ahamiyati salmoqlikdir. Og'zaki kinoya nafaqat tilshunoslik hodisasi, balki psixolingvistik xususiyatiga ko'ra ham kinoyaning boshqa turlariga qaraganda keng tarqalgan. Bilamizki, og'zaki nutq yozma manbalarga taqqoslanganda tilning nozik va diqqatga molik jihatlarini ko'p karra nomoyon qila oladi. Tadqiqotchilar tomonidan og'zaki kinoya psixologik tadqiqot sohasi sifatida bir nechta mavzularda tadqiq etilgan. Kinoyaviy jumla nutqda sof adabiy ma'no nazarda tutilmaydi, shu bilan birga kinoyaviy va kinoyadan holi nutq o'rtasida aniq xarita sezilmaydi. Masalan, kinoyaviy nutqda kimnidir "nafis" ("elegant") deb ta'riflash orqali yagona "qo'pol" (clumsy) ma'nosi nazarda tutilmaydi balki, umumiy ma'noda, unga yondosh ma'nolar: g'alati, beso'naqay, uyatchang, tartibsiz, ivirsigan ("awkward", "rough", "shy", "sloppy", "shabby") kabi sifatlarga ishora qilinayotgan bo'ladi. [3] Og'zaki kinoyaning o'ziga xos xarakterli xususiyati so'zlovchi qasddan kinoyaviy ma'noni rejalashtiradi, nutqini sof ma'nodan uzoq tutadi.

Og'zaki kinoya yuzaga kelishida bir qator aqliy jarayon aktivlashadi. Kognitiv tilshunoslikda so'zning kognitivlik ya'ni anglanish, tushunilish jihatlarini kashf qilinganidek, kinoyaviy jumalarni kognitivlik hodisada ham tahlil qilib ko'rildi. Masalan, Sullivan, Winner va Hopfieldning izohlashicha, kishining shaxsiy hissiy qobiliyatlari, aqliy salohiyati, uning atroficha bilimi, ishonch-e'tiqodi aynan kinoyaviy nutqni idrok etishda ahamiyatlidir[4]. Bu izohni shunday tushunish mumkin bo'ladi, har qanday tilda, kishining sof ona tilisida gapirilgan jumla o'zi bilan kognitivlik jarayonini aks ettiradi. Kishining tashqi bilimi ya'ni so'z bilan bog'liq xotirasi: leksemalarning ishlatilish o'rni, aytilish ohanggi, gapiruvchi toni, qisqa qilib aytganda kontekst elementlari boshqa stilistik ta'sir etuvchi vositalar qatorida kinoyani idrok etilishi bilan ifodalanadi.

TILSHUNOSLIK

1. Valeria Pfeiferning takidlashicha, og'zaki kinoya nutqda samarali aks etishi uchun ikkita asosiy faktorni o'zida mujassam etadi [6]:

1. Idrok etish (mentalizing)
2. Hissiy zakovat (emotional intelligence)

Nutq ishtirokchilari bo'lgan adresat va adresant o'rtasida o'zaro fikr almashinish va tushunish jarayonida bu ikki faktor asosan tinglovchi (qabul qiluchi, adresant) ga yuklanadi. Quyidagi misolda yaqqol nomoyon bo'layotgan kinoyaviy nutqni tahlilga olamiz:

"Kayfiyatim a'lo darajada" (jahll toni va uyulgan qovoq bilan aytilganda)

Tassavurga tayanib ko'rilganda, aqliy qobiliyati va tilning atrofiga ishlatilishidan bohabar shaxsgina ushbu kontekstda pardalangan kinoyani idrok qila oladi. Buni ingliz va o'zbek tillaridagi kontekstda tahlil qilinsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Vaholanki, yuqoridagi jumladan ingliz o'qituvchisi foydalandi va guruhdagi sanoqli talabalar kognitiv jarayonni his etishadi, aksincha til ko'nikmasi pastroq talabalarda bu sezilmaydi ham. Demak, yuqorida keltirilgan ikki faktor: idrok etish va hissiy zakovatning kinoyaviy nutqni aks etishida dolzarb o'ziga xoslik sifatida qabul qilish shubhadan holi bo'lmaydi.

Kinoyaga xos asosiy xususiyatlardan kelib chiqqan holda, adabiy nazariyotchi Duglas C. Muecke umumiy ma'noda kinoyaning uchta asosiy xususiyatini aniqlaydi:

1. Kinoya nutqda "ikki qavatga" ega bo'ladi natijada ana shu jihatidan uni muvaffaqiyatli qo'llash esa, qaysi qavatini tushunishga bog'liq bo'lgan hodisadir: "Quyi ma'no (qavat) da- bu kinoyaga tutilgan shaxs yoki kinoyadan foydalangan shaxs tomonidan yashirin tarzda taqdim etilgan vaziyat." Yuqori ma'no (qavat) da esa - bu tashqi ishtirokchi ya'ni o'quvchi uchun ko'rinadigan holat [7].

1. Kinoyadan foydalangan shaxs ikki daraja o'rtasidagi ziddiyat, nomuvofiqlik yoki beo'xshovlikdan foydalanadi.

2. Kinoya ma'lum bir asardagi personaj yoki jabrlanuvchining aybsizligi ustidan o'yin qilganga o'xshaydi: "Yoki jabrlanuvchi nutq jarayonida kinoyaning qaysi ma'nosi unga tegishlilikidan boshi qotadi; u go'yoki o'zini asl ma'nosini tushungandek his qilsa, boshqa ma'nosi (kesatiq ohangi)dan esa arosatda qoladi. Ingliz tilshunosligida kinoyadan foydalangan insonni "Ironist" ya'ni kinoyachi deb atashadi. Biz ham ushbu terminga o'zbekona yondashib og'zaki nutqda yoki badiiy asarlarda kinoyadan foydalangan shaxsni kinoyachi deb atashni ma'qulladik. Biz bunda bitta termindan foydalanish orqali nutqning ixchamligini va tejamliligini saqlashga intildik.

Kinoyaning yuqorida inobatga olingan bu uch xususiyatidan kontekstda qalqib chiqadigan ba'zi o'ziga xosliklarni tushunishimiz mumkin. Jumladan, kinoya nutq jarayoniga sirlik, yashirin ma'no, chalg'ituvchi fikr-mulohaza, ustki va ichki mohiyatga ega bo'lishi kabi elementlar bilan, bo'yoqdor, maqtov so'zlardan foydalangan holda, asosan kinoya qurbonini mushkul vaziyatga tushirib qo'yadi. Duglas C. Muecke "ikki qavat"li deya uni tariflar ekan ana shu bo'yoqdor so'zning asl ma'nosi va kontekstdagi pragmatik, hissiy ma'nolarini nazardan chetda qoldirmagan.

Kinoya hodisasi nutq vositasida sodir bo'lar ekan, muloqot shaxslararo o'zaro nutqiy ta'sir etish jarayoni sifatida aks etadi. Nutqiy jarayonga ta'sir etuvchi vositalar orasida tagma'noning ahamiyati ham keng muhokama qilinadi. Adabiy va og'zaki nutqda uchraydigan ba'zi jumlar shunday dalolat beradiki, tagma'no asl nazarda tutilgan ma'no bo'lib, so'zlovchi uni pardalantirgan holda taqdim etadi. Fikrni yashirin tarzda, kosa tagida nimkosa shaklida nazarda tutish, to'g'ridan-to'g'ri mo'ljalga olgandan ko'ra tezroq yetib boradi. Jumladan, o'zbek tilida olib borilgan tadqiqotlar orasida N.Kazakovaning hissasi diqqatga molikdir. Olima nasriy asarlardagi pragmatiklikning nozik xarakterlarini tahlilga olar ekan: "Tagma'no tagmatn badiiy asar interpretatsiyasi – tushunish, idrok qilish jarayoni bilan bog'liq hodisa bo'lib, o'zida semantic, kognitiv, psixologik, madaniy, pragmatik belgilarni nomoyon qilishi mumkin" [8] ligini izohlab o'tadi. Olimaning izlanishlariga ko'ra, tagma'no sof lingvistik hodisa bo'lib, tagmatn termini bilan ham uchrab turadi. Tagmanoning adabiy asarlarda aks etishiga ko'ra ikki turi tahlilga olingan bo'lib:

1. Kinoyaviy tagma'no.
2. Ishoraviy tagma'no.

Demak, kinoya va tagma'noning umumiy o'xshashligi yoki bir sathda turganligi shuni nomoyon qiladiki, kinoya uslubiy vosita sifatida til hodisasi sanalgan tagma'noni ham yuzaga

kelishiga asos bo'ladi. Bu ikki til hodisasi ham ma'lum bir ma'noda nutqda xuddi kinoya ifodalagani singari yashirin ma'noni eksplitsit usulda ham nomoyon qiladi.

Nutq ob'ektiga tegishli bo'lgan gina, kinoya, piching, kesatq mazmunining boshlanishining o'zi matnda tagma'no mavjudligiga ishora deb qaralishidan darak beradi [8]. Ma'lum bo'lishicha tagma'no ifodalanishiga ko'ra kinoya zamin sifatida xizmat qiladi. N. Kazakova kinoyaviy tagma'noning yuzaga kelish jarayonini quyidagicha tahlil qilinib o'tgan.

1.4-rasm. Kinoyaviy tagma'no yuzaga kelish jarayoni




Kinoya komiklikning bir turi bo'lib, unda sirdan ijobiy munosabat, mohiyatan esa salbiy munosabat ifodalanadi yoki aksincha. Negaki, taqdim etilgan propositsiya, so'zlovchi maqsadi bilan proporsionallikda yotmaydi. Nutqda yoki turli badiiy asralarda ijodkor tagma'noni semnatik ma'noga qarshi qo'yadi va tagma'no kelib chiqadi. Bu fikrlarga mohirona keltirilgan misol tariqasida: Bu mollarni yoyib o'tirgan chayqovchilarning aft-basharisini aytmaysizmi! Betlariga bu hafta ichi suv tegmagan, soqollari ustaradan ozod, basharalaridan nur yog'ilib turadi ("Shum bola") [9].

XULOSA

Kinoyaning kontekstda ifodalab kelgan turli pragmatik vazifalarini ochib berishda, uning keng qirrali oshkora ma'nolari kommunikativ jarayonni yuzaga keltiradi. Pragmatik nuqtai nazardan, kinoya o'zining yuzaki ma'nosidan tashqari bir nechta kommunikativ vazifalarni ham bajaradi. Bilvosita nutqning bir shakli sifatida kinoyadan foydalanayotgan shaxs ko'zlangan maqsadini to'g'ridan-to'g'ri oshkora etmay, tanqid, hazil yoki masxaralashni ifoda etishga xizmat qiladi va shu bilan suhbat jarayonida potentsial ziddiyatni yumshatishga ham imkon yaratadi. Kinoyaning pragmatik yondashuv asosida tadqiq etilishi suhbat jarayonida ishtirokchi hisoblangan so'zlovchining yashirin ma'nosini yetkazishda tildan unumli foydalanishni belgilasa, tinglovchi uchun esa, ko'zlangan yashirin ma'noni lingvistik belgilar asosida kashf etilishida muhim o'ringa ega. Ushbu pragmatik vazifa kinoyaning o'zaro ta'sir etuvchi omoli sifatida ham lingvistik, ham ijtimoiy vositalik funktsiyasini ochib beradi. Xususan, kinoyaning pragmatik vazifalarini nutq aktlari vositasida tadqiq etgan olim J.L. Ostinning ushbu sohaga qo'shgan hissasi beqiyosdir [9]. Olima, kinoyaning nutq aktlari (speech act theory) da so'zlovchining o'z nutqi orqali maqsadga olgan (savol ohangi, va'da berish, ko'ndirish va h.k.) yashirin ma'nolariga urg'u beradi. Ushbu vaziyatlarda kinoya o'zlashtirma nutq akti sifatida so'zlovchining ko'zda tutgan va adabiy ma'nosi o'rtasida tofovutni keltirib chiqaradi. Natijada, nutq aktlarining dolzarb xususiyatlari kinoyada nomoyon bo'ladi va ular quyidagicha tavsiflanadi.

1. Illokutiv akt: so'zlovchining aytilgan kinoyaviy nutqi va asl maqsadga olingan ma'nosining aks ta'siriga egaligi.
2. Prelokutiv ta'sir: tinglovchining nutq jarayoniga bildirgan reaksiyasi.
3. Pragmatik vazifadorlik: bunda kinoyadan ko'zlangan turli ishoraviy belgilarga ega kontekstda ifodalangan pragmatik ma'nolar. Ular quyidagi diagrammada to'laligicha aks etgan.



1.5-rasm. Kinoyaning nutq aktlarda ifodalanishi

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Балашов С. Н.. Когнитивная природа иронии: парадигма моделей в сопоставительном описании (на материале английских художественных произведений XX века и их русских переводов). Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Екатеринбург, 2006. – С. 12.
2. Pfeifer, Valeria & Pexman, Penny. When It Pays to Be Insincere: On the Benefits of Verbal Irony//Current Directions in Psychological Science//2023. №33. 10.1177/09637214231205312.
3. Bromberek-Dyzman, K. Affective twist in irony processing. Humana//Mente Journal of Philosophical Studies//№5(23), 2012. –p. 83–111. <https://www.humanamente.eu/index.php/HM/article/view/164>
4. Sullivan, K., Winner, E., & Hopfield, N. How children tell a lie from a joke: The role of second-order mental state attributions//British Journal of Developmental Psychology//№13(2), 1995.–P.191–204. <https://doi.org/10.1080/87565641.2003.9651888>
5. Pfeifer, Valeria & Pexman, Penny. When It Pays to Be Insincere: On the Benefits of Verbal Irony//Current Directions in Psychological Science//2023. №33. 10.1177/09637214231205312.
6. Muecke, D. C. *The Compass of Irony*. Taylor & Francis Limited, 2023. –p. 91-92. ISBN 978-0367655259.
7. Qazaqova N. G'afur G'ulom asarlarining pragmalinqvistik tadqiqi: filol. fanlari nomz. diss. – Namangan, 2019. – B. 104.
8. Хакимов М. Ўзбек прагмалinqвистикаси асослари. –Тошкент: Академнашр, 2013. –Б.104.
9. Austin, J.L. *How to Do Things with Words*. Oxford University Press, 1962. –P. 92-101.